



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA O'YINLARNING AHAMIYATI

Hamidova Shoira Atabayevna

*Samarqand Veterinariya meditsinada instituti. O'zbek, rus tillari va adabiyoti
kafedrasi o'qituvchisi*

Inson dunyodagi eng murakkab yaratiqlardan biri hisoblanadi. Bolaning homila paytidan to tug'ilishigacha bo'lgan jarayon boshqa jonzotlar bilan qiyoslanganda ham ba'zilari bilan umumiylit holati bo'lsa-da, lekin o'zigagina xos bo'lgan tomonlari anchagina. Hayvonlarda tug'ilish jarayonidan so'ng mustaqil hayotga qadam qo'yish juda tezlik bilan amalga oshadi. Ular qisqa vaqt ichida tashqi muhitga moslashib oladilar. Insonlarda bu jarayon nisbatan sekinlik bilan ro'y beradi. Bola tug'ilgach, 3 yoshgacha to'liq ona nazorati ostida, barcha ishlarda uning ko'magiga muhtoj bo'ladi. Biroq aqliy tafakkurining rivojlanishi juda erta boshlanadigan jarayondir. Ilm-fanning keyingi xulosalariga qaraganda bolaning aqliy tafakkuri 3 yoshgacha to'liq shakllanib bo'lar ekan. Demak, bundan ota-onas bolaning tarbiyasi va ta'limiga e'tiborni tug'ilishidan boshlashlari kerak, degan xulosa kelib chiqadi. Bolaning ham jismoniy, ham aqliy rivojlanishi nafaqat ota-onas uchun, balki jamiyat, davlat uchun eng muhim masalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan so'nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasiga alohida e'tibor berilayotgani quvonarli holdir.

Bolaning har tomonlama erta rivojlanishi xususida M.Motessori, M.Ibuka, G.Doman, N.Zaytsev kabi bir qancha xorij olimlar izlanishlar olib borganlar.

Umuman olganda, bolaning rivojlanishiga e'tibor qaratishni necha yoshida boshlash zarurligi onalarni juda qiziqtirdigan savol. Bunda, avvalo, tarbiyalovchi, ya'ni ona bunday mas'uliyatli vazifaga qanchalik tayyor ekanligiga e'tibor qaratish lozim. Sababi onada har tomonlama yetuk farzandni voyaga yetkazish ishtiyoqi, xohish juda kuchli bo'lishi kerak. Ona har tomonlama sog'lom bo'lsagina, undan sog'lom farzand tug'ilishi bugungi kunda hech kimga sir emas.

Bolaning har tomonlama erta rivojlanishi xususida M.Motessori, M.Ibuka, G.Doman, N.Zaytsev kabi bir qancha olimlar izlanishlar olib borganlar.



G.Doman o'zining "Bolaning uyg'un rivojlanishi" kitobida bolaning ilk rivojlanish davrida ona ishtiroki haqida juda qimmatli fikrlarni keltirib o'tadi.

Onaning bola tarbiyasida o'rni beqiyos. U eng birinchi o'qituvchi, bola uchun asosiy motivator hamdir. Biz to'xtalmoqchi bo'lganimiz kichik yoshdagi bolalar dunyoqarashini shakllantirishda o'yin vositalarini to'g'ri va maqsadli tanlanishidir. Bola uchun doim ham tayyor o'yinchoqlar tanlash(albatta yoshini hisobga olib, o'yinchoqning materiali va hajmiga e'tiborli bo'lish zarur.) maqsadga muvofiq emas. Kichiklikdan insonda o'zi yasash, yaratish ishtiyoqi kuchli bo'ladi. Shuning uchun qismlarga ajraladigan yoki bir necha qismlar birlashtirilib turli shakllar yasash mumkin bo'lgan o'yinchoqlarni tanlash maslahat beriladi. O'yin yoki o'yinchoq turini tanlashda bolaning qiziqishi inobatga olinishi juda muhim. Bola istagan vaqtida o'yinni to'xtatish joiz, yo'qsa unda zerikish paydo qilishi va qayta bu narsaga qiziqishini uyg'otish qiyin kechadi. Ota-onada bolaning kelajakda kim bo'lishini, o'zlari istagan inson sifatida ko'rishlari uchun harakatni juda erta boshlashlari zaur. Faqat bu harakat bola shaxsini hurmat qilgan holda, sabr-toqat va mahorat bilan amalga oshirilishi kerak.

Yana bir e'tiborli tomoni shundaki, bolaning aqliy rivojlanishi jismoniy rivojlanishi bilan mushtarak holda bo'lmosg'i lozim. Jismoniy harakatlar asosiga qurilgan o'yinlarni didaktik maqsadga xizmat qildirish kerak. Shunda ham jismoniy, ham aqliy rivojlanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Г. Доман «Гармоничное развитие ребёнка» "Akvarium", 1996
2. Зайцев Н. Самые популярные методики воспитания. - Харьков, «Издательство», 2010 .
3. Ibuka M. Uchdan keyin kech. – Toshkent, “Akademnashr”, 2020
4. Ibuka M., Uchgacha ayni vaqt – Toshkent, “Akademnashr”, 2021
5. Q.Husanboyeva , M.Hazratqulov, G.Berdialiyeva. Maktabgacha ta'limda badiiy matn bilan ishslash metodikasi. – Toshkent, “Innovatsiya- Ziyo” 2020